Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 78

XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda teatr va kino san’ati rivojlanishining ayrim xususiyatlari

Zohidjon Rasulovich Isomiddinov*
Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumani 2-IDUM direktori
✉ isomiddinovzohidjon221@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda milliy san’atning shakllanishi va rivojlanishi, o‘zbek badiiy ziyolilarining tarkib topishi hamda ularning g‘oyaviy-nazariy jihatdan chiniqish jarayonlari tahlil etilgan. Unda o‘zbek professional teatrining rivojlanishi, milliy rejissura va aktyorlik maktabining shakllanishi, musiqa, opera, balet, raqs va kino san’atining taraqqiyoti yoritilgan. Shuningdek, Abror Hidoyatov, Mannon Uyg‘ur, Sora Eshonto‘rayeva, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Komil Yormatov, Nabi G‘aniev va boshqa san’at namoyandalarining milliy san’at rivojiga qo‘shgan hissasi ko‘rsatib berilgan. Maqolada mazkur davr san’atining rivojlanishiga xizmat qilgan ta’lim muassasalari va ijodiy jamoalarning faoliyati bilan bir qatorda, sovet mafkuraviy siyosatining san’at va ijodkorlar faoliyatiga ta’siri ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

O‘zbek milliy san’ati, teatr, musiqa, opera, balet, kino, raqs san’ati, badiiy ziyolilar, milliy rejissura, aktyorlik san’ati, kompozitorlar, sovet mafkurasi, madaniy siyosat, milliy kinematografiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23281726

KIRISH

O‘zbek milliy san’atining vujudga kelishi va rivojlanishi, o‘zbek badiiy ziyolilarining shakllanishi va g‘oyaviy-nazariy chiniqishi mashaqqatli bo‘lgan. Ular o‘z xalqining madaniy merosiga tayangan holda milliy san’at asosini asta mustahkamlab borib, mahalliy kadrlar tayyorlashga o‘z hissalarini qo‘shgan.

O‘zbek professional teatrining muayyan an’analari qaror topib, milliy rejisserlar va boshqa san’at ustalaridan iborat kadrlar shakllandi va ular jahon san’atida munosib o‘rin egallagan obrazlarni yaratdi[1].

O‘z davrining fidoiy madaniyat xodimlaridan biri Shokirjon Raximiy 1924-yilda Moskvaga xizmatga yuborilib, Xalq ta’limi komisariatining yo‘llanmasi bilan maorif va teatr guruhining o‘zbek artistlari va madaniyat arboblaridan Abror Hidoyatov, Mannon Uyg‘ur, Sora Eshonto‘raeva va boshqa madaniyatning yirik nomoyandalari ta’lim olgan edilar.

O‘zbek teatrining g‘oyaviy teranligi, badiiy yetukligi, uning shakli va yechimlarining xilma-xilligi M.Uyg‘ur, R.Bobojonov, M.Muhamedov va boshqa san’atkorlarning ijodida namoyon bo‘lgan milliy rejissura yutuqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Respublika teatrlari sahnasida milliy mualliflarning pesalari, chet el klassiklarining asarlari sahnalashtirilgan.

1930-yillarda Hamza nomidagi O‘zbek drama teatining ijodiy gruppasi mustahkamlandi, unda ajoyib aktyorlar, Abror Hidoyatov, Obid Jalilov, Mirshohid Miroqilov, Sora Eshonto‘raeva, Mariya Kuznesova singari sahna ustalari ortidan yosh aktyorlar avlodi – Olim Ho‘jaev, Shukur Burxonov, Nabi Rahimov, Amin Turdiev, Maryam Yoqubova, Qudrat Ho‘jaev, G‘ani A’zamov, Holida Ho‘jaeva va boshqalar yetishib keldilar. Teatr o‘zini murakkab badiiy-estetik vazifalarini hal etishga qodir ijodiy jamoa sifatida namoyon qildi.

O‘zbek musiqali teatri, shuningdek, rus drama teatri sahnasida ham qator badiiy jihatdan yetuk spektakllar namoyish etildi. Aktiyor va rejissyorlar mahorati orta borib viloyatlardagi musiqali drama teatrlari, kolxoz,

sovxoz teatrlari ham birmuncha muvaffaqiyatlarga erishdi. O‘zbek musiqali drama janrining rivojlanishi respublikamizda opera va balet janrlarining vujudga kelishiga imkon yaratdi.

1930-yillarning ikkinchi yarmida o‘zbek musiqali teatri o‘z oldiga opera va baletni o‘zlashtirish vazifasini qo‘ygan va shu tariqa milliy operaga asos solingan. Respublika teatr san’ati rivojida ham sifat ham miqdor jihatdan o‘sish kuzatilgan va natijada 1930-yilda respublikada 21 ta professional teatr ishlab turgan bo‘lsa, 1939-yilda ularnig soni 45 taga yetgan[2].

O‘sha yillar ma’naviy hayotidagi umumiy nuqsonlar teatrlarga o‘z asoratini o‘tkazib, teatr san’ati ham mafkura zug‘umiga bo‘ysundirilgan. U pirovard natijada keng xalq ommasining emas, balki hukmron siyosiy hokimiyat manfaatlarini aks ettirgan. Repertuar siyosatini shakllantirishda milliy-madaniy an’analar va omillar hisobga olinmagan.

O‘zbekiston teatr-musiqa san’atining rivojlanishi ko‘plab yetuk kadrlarni talab qilar edi. Shu maqsadda, musiqa o‘quv yurtlari tashkil etilib, kolxoz va sovxoz teatrlari uchun rejisserlar tayyorlaydigan 4 oylik kurslar ham ochilgan. Moskva, Leningrad, Boku va sobiq Ittifoqning boshqa yirik shaharlaridagi badiiy oliy o‘quv yurtlari O‘zbekiston uchun ko‘plab iste’dodli san’atkorlarni tayyorlab bergan. Ular orasida H.Nosirova, M.Turg‘unboeva, Tamaraxonim, N.Axmedova, L.Sarimsoqova, R.Karimova, O.Ho‘jaev kabi iste’dodlar bo‘lgan[3].

Mavjud qattiq siyosiy nazoratda ham teatr jamoalari milliy madaniy an’analarni va milliy teatr sahnasining o‘ziga xosligini saqlab qolishga intilgan. Ana shu yillarda teatrlarda sahnalarida aholi turmushini, xotin-qizlarning, ijtimoiy hayoti va ma’naviy yuksalishga intilishlarini aks ettirishga bag‘ishlangan A. Cho‘lponning “Ezuvchi”, “O‘rtoq Qarshiboev”, K Yashinning “Nomus va muhabbat”, “O‘rtoqlar”, “Yondiramiz”, K.Yashin va M.Muhamedovning “Gulsara”, N. Safarovning “Sharq tongi”, «Uyg‘onish», «Qonli kunlar», Z.Said va N.Safarovning «Tarix tilga kirdi», Hamzaning «Farg‘ona fojiasi», Z.Fatxullinning «G‘unchalar», «Niqob yirtildi», I.Akromovning «Adolat», U.Ismoilovning «Rustam» asarlari, shuningdek, Alisher Navoiyning mumtoz asarlari asosida yaratilgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» spektakllari, S.Abdullaning «Tohir va Zuhra» hamda boshqa asarlai sahnalashtirilgan.

Kino sa’nati yo‘nalishida respublikada o‘ziga xos xususiyatlardan asosiysi, ushbu sa’nat ham iloji boricha hukmron tuzum manfaatlariga xizmat qilishga yo‘naltirilgan. Respublikada aholiga kino xizmati ko‘rsatish sobiq ittifoqda eng keyingi o‘rinlarda bo‘lib, agar SSSRda 1938–39-yillarda har 100 kishiga 343 marta kinoga borish to‘g‘ri kelsa, O‘zbekistonda 189 ni tashkil etgan.

O‘zbekiston aholisiga “Юност Максима”, “Мы из Кронштате”, “Чапаев”, “Депутат Болтики”, “Шорс”, “Ленин в октябре”, “Человек с ружем”, “Ленин 1918 году” kabi sovetlar manfaatiga xizmat qiladigan badiiy filmlar qayta-qayta nomoyish qilingan[4].

Qishloqda sinfiy kurash mavzusidagi “Qasam” O‘zbekistonda paxta uchun kurash mavzusidagi “Azamat va Oyxon” industrlashtirish sohasidagi g‘alabalarini ko‘z-ko‘z qiluvchi “Asal” kabi badiiy filmlar yaratildi[5].

1937–1939-yillarda yangidan 264 ta doimiy va ko‘chma kinoqurilmalar barpo etilib, foydalanishga topshirilgan[6]. Agar 1929-yilda respublikada doimiy va ko‘chma kinoqurilmalarning soni 121 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1938-yilda ularning miqdori 562 taga, 1940-yilda esa 633 taga yetgan va ularning yarmi qishloq joylarda barpo etilgan[7].

Kinoteatrlar ekranida o‘zbekcha “Bahor mamlakati”, “Qoraqalpog‘iston”, “Azamat”, “Asal” hamda Mosfilm va Lenfilmlar tomonidan ishlangan filmlar namoyish etilgan[8].

Malakali musiqa san’atkorlari tayyorlashda 1936-yilda tashkil etilgan Toshkent davlat konservatoriyasi katta rol o‘ynagan. Konservatoriyada eng yaxshi mahalliy musiqa ustalari, shuningdek, sobiq Ittifoqning katta shaharlaridan kelgan malakali pedagoglar faoliyat olib borgan. Tuzilgandan keyin bu oliygoh qisqa vaqt ichida 100 dan ortiq mutaxassis tayyorlab chiqarishga muyassar bo‘ldi. Ular o‘zbek musiqiy va vokal madaniyatini rivojlantirishga kompozitor, musiqashunos, dirijer va xonandalar tayyorlashga hissa qo‘shgan. Shuningdek, Toshkentda katta yoshdagilar uchun doimiy musiqa maktabi tashkil etilib, unda 1938-yilda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda 120 kishi ta’lim olgan. Bunday maktablar Samarqand, Farg‘ona va boshqa shaharlarda ham ochilgan. Malakali o‘zbek musiqachi kadrlarga bo‘lgan talabni qondirish uchun yangi o‘quv yurtlari tashkil

etishga hamda umumiy o‘rta va oliy professional musiqa ta’limi tarmoqlarini tartibga solishga alohida e’tibor berilgan. Moskvada o‘zbek opera studiyasi, Toshkentda Teatr texnikumi va balet maktabi, yirik teatrlar huzurida teatr studiyalari ochilgan. Bundan tashqari, 1936–37-o‘quv yillarida Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Urganchda yetti yillik musiqa maktablari ish boshlagan[9].

Shu bilan birga mazkur davrda o‘zbek kompozitorlarining katta bir guruhi yetishib chiqqan va ular orasida iste’dodli bastakor To‘htasin Jalilov, qo‘shiqchilik hamda musiqali drama janri sohasida To‘ychi Hofiz Toshmuhamedov, Halim Ibodov, Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov va boshqalar bo‘lib, ular zamonaviy o‘zbek milliy musiqasining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. O‘zbek musiqa teatri negizida O‘zbek davlat opera va balet teatri shakllandi. Uning sahnasida 1939-yilda dastlabki o‘zbek operasi K.Yashin lebrettosi asosida M.Ashrafiy va O.Vasilenko tomonidan yaratilgan “Bo‘ron” operasi ijro etilgan. Unda XX asr boshlari Turkiston xalqining hayoti aks etgan. Shuningdek, “Bo‘ron” operasida o‘zbek musiqasi tarixida birinchi marta to‘rt ovozli uyg‘un qo‘shiq aytish joriy etilgan. Bu voqealarni jonli guvohi bo‘lgan xalq artisti M.Ashrafiy shunday eslaydi: “O‘zbekiston opera san’atining kashshoflari bo‘lgan Muhiddin qori Yoqubov, Halima Nosirova, Karim Zokirov, Boborahim Mirzaev o‘z partiyalarini nechog‘lik ilhom bilan, yuqori ko‘tarinki ruh bilan ijro etganliklari esimda. Ular spektaklga shunday qahramonona jo‘shqinlik, shunday zavq-shavq olib kirdilarki, ketma-ket 40 marta qo‘yilgan tomoshaga muxlislar ko‘pligidan kirib bo‘lmasdi...”[10]

O‘zbek san’atining umumiy rivoji bilan qadam-baqadam o‘zbek raqs san’atida yangi yo‘nalishlar vujudga kelib, o‘zbek xalq raqslari asosida 1938-yilda birinchi o‘zbek baleti “Shohida” qo‘yilgan va keyinroq “Gulandom” baleti, “Layli va Majnun” operasi yuzaga keldi. Katta Farg‘ona kanali qurilishiga bag‘ishlangan M.Ashrafiy, S.N. Vasilenko va K.Yashinning “Ulug‘ kanal” operasi yaratuvchanlik mehnatini tarannum etgan. Opera xor, ariya va ommaviy qo‘shiqlarga boy bo‘lib, ular asosan o‘zbek xalq musiqasiga tayangan.

Shunisi e’tiborga sazovorki, dastlabki milliy professional raqqosalar, qo‘shiqchilar, cholg‘uchilar 1938-yili Angliyada bo‘lib o‘tgan xalq raqslari Jahon festivalida ishtirok etib, xalqimiz san’atini dunyoga tanitgan. Ular orasida Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, To‘xtasin Jalilov, Abduqodir Ismoilovlar kabi mashhur insonlar bo‘lgan. Londonning barcha gazetalarida festival haqida va ajoyib o‘zbek raqsi, uning mohir ijrochilari haqida materiallar e’lon qilingan. Tamaraxonim va Usta Olim Komilov eng yaxshi ijrolari uchun festivalning oltin medaliga sazovor bo‘lgan.

O‘zbekiston kino san’atining rivojlanish va milliy kinematografiya kadrlarining shakllanish jarayoni davom etgan. Milliy kinematograf kadrlar ikki yo‘l bilan iste’dodli yoshlarni tanlab, mamlakatning markaziy shaharlaridagi o‘quv yurtlariga yuborish hamda ularni shu yerning o‘zida respublikada o‘qitish yo‘li bilan tayyorlagan. Masalan, o‘zbek kinosi ustalari Y.A’zamov, S.Iskandarov, A.Rahimov, A.Umarov, R.Pirmuxamedov, M.Rasulov, R.Ahmedova va boshqalar Moskva va Leningraddagi o‘quv yurtlarini tamomlab kelishgan. Ikkinchi bir guruh N.G‘aniev, S.Ho‘jaev, K.Yormatov, M.Qayumov va boshqalar esa kino san’ati sirlarini bevosita ishlash jarayonida egallagan. O‘zbek milliy kinosining shakllanishi va taraqqiyotiga Nabi G‘aniev, Komil Yormatov hamda Malik Qayumovlarning alohida o‘rini bor. Ular butun umrlarini milliy kino rivojiga bag‘ishlab, xalqning hurmatiga sazovar bo‘lgan.

O‘sha yillarda o‘zbekistonlik kinorejisserlar o‘zlarining «Yuksalish», «Ramazon», (rejisser N.G‘aniev), «Qilich» (rejisser Y.A’zamov), «Ajal qudug‘i» (rejisser Yu.Kladko), «Yigit» (rejisser N.G‘aniev), «So‘ngi bek» (rejisser Ch.Salbinskiy), «Avliyoning qizi» (rejisser O.Frelix), «Tong olidida» (rejisser S. Ho‘jaev) kabi dastlabki mustaqil kinolentalarini yaratgan.

Xulosa. Bu paytda badiiy ijodda ham bir yoqlamalikka e’tibor qaratilib, ijodkorlarning tanlagan qahramonlari o‘z hayotlaridan va ijtimoiy hayotdan juda xursand, jamiyat hayotida hal etilmagan muammolar qolmagan, “sovet kishisi barcha xalqlardan baxtiyor” degan g‘ayrioddiy yondashuv shakllandiki, bu sovet tuzumini ulug‘lashga qaratilgan siyosat oqibati edi. Kishilarning turmushidagi murakkabliklar, zo‘rg‘a hayot kechirishi, shaxsga sig‘inishning avj olayotgani haqida deyarli so‘z yuritilmagan. Mafkura partiya siyosatini qo‘llab-quvvatlashga da’vat etib, unga itoat etmagan ijodkorlar 1929, 1930, 1937-yillardagi “tozalash” kampaniyalarining qurbonlari bo‘lganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Валиев А.К. Октябрь, культура, интеллегенция. – Т.: Фан, 1977. – С. 48-50.

2.Узбекистан за 15 лет (1924–1939). – Т.: 1939. – С.32-33; Культурное строительство в СССР. – М. –Л.: Госполитиздат, 1940. – с.610.

3.Рахманов Н. Ўзбек театри. – Т.: 1970. – 42-47 бетлар.

4.Клочко В.Ф. Культурное строительство в Советской деревне в годы второй пятилетки (1933–1937) М., 1956, с.109.

5.O‘zbekiston Milliy arxivi, 837-jamg‘arma, 32-ro‘yxat, 3206-ish, 3-varaq.

6.O‘zbekiston Milliy arxivi, 1619-jamg‘arma, 11-ro‘yxat, 13-ish, 30-varaq.

7.Культурное строительство СССР. Стат. сб. – М. –Л.: 1940. -С. 17; Советский Узбекистан 40 лет. Стат. сборник.: -Т.: Узбекистан, 1964, -С. 330

8.Абдул-Касымова Х. Рождение узбекского кино. – Т.: 1965. – С.8; Узбекская Советская Социалистическая Республика. –Т.: 1977. – С.158-159.

9.Охунджанов Д. Из истории формирования кадров узбекской интеллегенции. Канд.дисс.авт. – Т.: 1999.

10.Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб– Т.: Шарқ, 2000. – 398-399 бетлар .